
Farg'ona shahrida ustoz va murabbiylarga yuksak ehtirom ko'rsatildi

1 oktyabr — O'qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan Farg'ona shahridagi "WINE GARDEN" tantanalar majmuasida bayram tadbiri tashkil qilindi. Tadbirga faxriy ustozlar, hozirgi kunda mehnat faoliyatini olib borayotgan ilg'or o'qituvchi va murabbiylar taklif etildi.

Tadbirda Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov ustoz va murabbiylarni sana munosabati bilan samimiy qutladi. Barcha uchun ibrat namunasi, yuksak insoniy fazilatlar timsoli bo'lgan aziz va mo'tabar zotlarning mashaqqatli mehnati e'tirof etildi.

Sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, yoshlarni ona Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalari g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash yo'lidagi ibratli faoliyati uchun bir guruh ustoz va murabbiylar shahar hokimligining tashakkurnoma hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

O'zbekistan Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Sayyora G'ozieva, xushovoz xonandalar Shaxzod Murodov, Jo'rabek Qodirov, Izzatbek Qo'qonov, Oybek Xolboev va "Joziba" raqs jamolari hamda shahar madaniyat bo'limi sa'natkorlaridan Abrorbek Nishonov, Rustam Iskandarov, Sadoqat Karimovlar hamda "Sado" havaskor xalq doirachilar jamoasi tadbirga ko'tarinki ruh baxsh etdilar.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-09-30 18:06:42